

## PROFESSIONAL TA'LIMNI ISLOH QILISH MASALALARI

**Joldashova Go'zal O'tkir qizi**

**Ayxo'jayeva Muhayyo Turebayevna**

*Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 1-son kasb hunar maktabi*

*Ishlab chiqarish ta'lim ustalari*

**Annotatsiya:** *Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar barcha ta'lim muassasalarining yangicha zamonaviy qiyofasini ko'zlamoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu jarayondan Professional ta'lim tizimi ham chetda qolmagan. Ushbu maqolada professional ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida mulohaza yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *dual ta'lim, kasb, professional ta'lim, texnikum, oliy ta'lim, muassasa, imtiyoz, kollej, diplom, raqobat, mehnat, ish beruvchi, malaka.*

Dunyoda ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim yo'nalishi sifatida qaralmoqda. YuNESKO tomonidan 2030 - yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida «Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Bu xolatni oddiy qilib tushuntiradigan bo'lsak endi ish beruvchi faqat diplom bilan kifoyalanmayapti. Qo'lingdan nima keladi boshqalardan nima ustunliging bor deb so'rayapti. Agar rasmiy tilda ifoda etsak ish beruvchi tasdiqlagan malaka darajasi baholangan layoqatlilikni talab qilayapti. Qolaversa bugun mehnat bozorida raqobatning asosiy sharti ham shu.

Bugun ish beruvchi har bir xodimni ishga tanlov asosida qabul qiladi. Davogarlari ish beruvchiga o'zi va malakasi haqida ma'lumot, malaka sertifikatini taqdim etadi, undan so'ng suhbat asosida layoqatliliigi baholanadi. Shu bois, bir ish o'rniga bir nechta da'vogar bo'lib turgan hozirgi holatda ish beruvchi ishga olish uchun nimalarni o'lchov, me'yor yoki baholash mezonini qiladi, degan savolga bugungi zamonaviy ta'lim tizimida aniq javob bo'lishi kerak.

Bu o'rinda ish beruvchi korxonalar bilan ta'lim muassasalarining munosabati muhim ahamiyatga ega. Bu munosabat va maqsadlar uyg'unlashtirishning yagona formati bo'lgan professional ta'lim standartlarida o'z aksini topadi. Ish beruvchi professional ta'lim tizimida ham buyurtmachi, ham pudratchi vazifasini bajarishi kerak. Chunki professional ta'lim standarti ish beruvchi tomonidan qo'yiladigan malaka talablarining barcha jihatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bir so'z bilan aytganda, ish beruvchi ta'lim beruvchiga ishonchli hamkor bo'lishi kerak.

Ayni shu ma'noda sifatsiz professional ta'lim standarti samarasiz professional ta'limga sabab bo'lishi mumkin. Bundan xulosa shuki, mukammal professional ta'lim standarti aslida ta'lim sifatiga buyurtma demakdir.

Ayni paytda har bir ish o'рни va lavozimning vazifalari tasnifi va uni samarali muvofaqiyatli bajarish uchun lozim bo'lgan ko'nikma bilim va layoqatlilik yoritilgan malaka talablarining yangi formatdagi me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Endi professional ta'lim dasturlarining mazmuni ta'lim natijalari, ta'limning sifati shu me'yoriy asoslarga muvofiq shakillantiriladi. Bu tizim biz tayyorlayotgan mutaxassislarining ham mahalliy ham xorijiy mehnat bozori o'zgarishlariga moslasha olishga imkoniyat yaratadi. Ustiga ustak ayni paytda mehnat bozorida raqobat muhiti ancha keskinlashgan korxonalarining ishchi yoki mutaxassis yollash tizimlari takomillashgan talablar mutlaqo o'zgargan.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish masalalari ilgari surilgan. Shuningdek, milliy va tarmoq ixtisoslashuv tizimi, kasb va mutaxassisliklar bo'yicha professional standartlar hamda tabaqalashtirilgan ta'lim standarti va dasturlari joriy etilmoqda. Bu mehnat bozori bilan ta'lim sohasi integratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Professional ta'lim standartida xodimning malaka darajasi aniq belgilab beriladi va shu malaka darajasi xodimning o'sishi hamda keyingi ixtisoslashuv darajasi yuksalishiga pillapoya bo'lib xizmat qiladi.

Professional ta'limda birinchi marta har bir mutaxassisning xalqaro me'yorlarga mos malaka darajasini belgilab berishga asos bo'ladigan hujjat – Milliy malaka tizimi qabul qilindi. Mamlakatimizda mehnat bozorining samarali mexanizmlarini joriy qilish, aholining ishchanlik qobiliyatini oshirish, kambag'al va ishsiz fuqarolarni zamonaviy kasb-hunar va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish

orqali, ularni doimiy daromad keltiradigan faoliyatga jalb qilishga katta etibor

qaratilmoqda. Bu albatta aholi, ayniqsa, yoshlarga ko'maklashish, sanoat tarmoqlariga malakali mutaxassislar yetkazib berish, joylarda tadbirkorlikni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki, biron bir kasb-hunarni egallash uchun, professional ta'lim tizimini to'g'ri tashkil qilish kerak va bu amalda o'z natijasini berishi aniq. Tizim yo'q joyda esa, kasb bo'lgani bilan uning haqiqiy egasi topilmaydi. Bir biriga mushtarak ushbu ikki omil mukammal bo'lmasdan ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida 2022 yil 15 iyun kuni

o'tkazilgan videoselektor yig'ilishda 330 ta kasb-hunar maktabi, 173 ta kollej va 207 ta texnikumlarda tizim samarali ishlatilmayotgani, mavjud quvvatlarning atigi 40-50 foizidan foydalanilayotganligi, ba'zi vazirlik va idoralarga berilgan kollejlarda 10-20 foiz quvvatda ishlayotganligi, kollej va texnikumlardagi kasblar ish beruvchilarning talabiga mos emasligi ta'kidlab o'tildi.

Professional ta'lim tizimining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi natijasida o'z

yechimini kutayotgan bir qator muammolar vujudga keldi. Xususan, ba'zi vazirliklar o'zlariga birlashtirilgan ta'lim muasasalariga e'tiborning yo'qligi oqibatida o'quv binolaridan foydalanish koeffitsientlari juda pastligi aniqlandi. Masalan, Energetika, Suv xo'jaligi, Uy-joy kommunal vazirliklariga berilgan kollejlarda 20 foiz, Qurilish, Transport vazirliklari kollejlari 10 foiz quvvatda ishlab

kelmoqda. Shuningdek, 2021-2022 o'quv yilida kollej va texnikumlarning 15 mingga yaqin o'quvchilari kontrakt pulini to'lash imkoniyati yo'qligi bois, o'qishni davom ettira olmagan.

Bundan tashqari, kollej va texnikumlardagi kasblar ish beruvchilar talabiga mos emasligi, kasbiy darslik va adabiyotlarning yetishmasligi, yoshlarni kasbga yo'naltirishga mas'ul bo'lgan psixologlarning ishi umuman sezilmayotganligi qayd etildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Prezident tomonidan kasb-hunar ta'limini zamon talablariga moslashtirish bo'yicha yangi tizim joriy qilinishi belgilab

berildi. Unga ko'ra, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi barcha kasb-hunar maktablari va texnikumlarni boshqarish va metodik ta'minlashga mas'ulligi, dual ta'lim shakli kasb-hunar maktablari va texnikumlarda ham joriy etilishi shuningdek, vazirlikda alohida vazir o'rinbosari lavozimi joriy etilib, departament tashkil qilinishi, professional ta'lim tizimini tubdan isloh qilish – oliy ta'lim vaziri, uning o'rinbosarlari, rektorlarning eng ustuvor vazifasi bo'lish kerakligi belgilab

berildi. Bundan tashqari, viloyat, tuman va shaharlarda Kasb-hunar ta'limi kengashlari tashkil etiladi. Professional ta'limni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilib, unga 50 mlrd so'm yo'naltiriladi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 29.03.2021 yildagi «Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida»gi 163-son qaroriga ko'ra yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida 2021/2022 o'quv yilidan professional ta'lim tizimida dual ta'lim tashkil etilgan. Hozirda respublika bo'yicha 57 ta professional ta'lim muassasasida Germaniya tajribasi asosida ish joyida o'qitishning dual ta'lim shakli joriy etilgan.

Endilikda dual ta'limni joriy etish uchun kasb-hunar maktablarining bo'sh maydonlarida korxonalarining ishlab chiqarish sexlarini tashkil etilishi bo'sh yer maydonlaridan unumli foydalanish, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini sifatli tashkil etishga hamda o'quvchilarning ushbu korxonalarda ishlab, oylik olishlariga zamin yaratadi.

Professional ta'lim tizimidagi pedagog va ustalar oyligi o'rta maktab o'qituvchilariga tenglashtirilishi, o'qituvchilar malaka toifasi uchun to'lanadigan ustama o'rtasidagi farqning barobargacha oshirilishi, erishgan natijasiga qarab, fidoyi va tashabbuskor pedagog kadrlarning oyligiga 50 foizgacha ustama to'lashning joriy etilishi bu professional ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir rahbar va pedagog kadrlarni rag'batlantiradi va shu bilan birga bu juda katta mas'uliyatni yuklaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2019 yil 6 sentyabr. PF-5812-son



2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi qarori. 29.03.2021 y. 163-son.
3. N.M.Egamberdieva, A.U. Axmadaliev, A.B.To'raev . Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari moduli. T.: Iste'dod, 2016
4. G.I.Xasanova "Ta'lim jarayonida dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari" Jizzax: 2020.